



## HIKOYA METODLARI TUSHUNCHASI HAQIDA

**CHINIYEVA FERUZA**

*Arnasoy tumani 2-sonli  
umumta'lim boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar hikoya o'qish metodikasi, hikoya tahlili va buni o'quvchi dunyoqarashini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Hikoyani tahlil qilish, hikoyani izohli o'qish, dadam qurgan dengiz olma, tushunarliklik.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о методах чтения рассказов в начальной школе, анализе рассказов и их важности для улучшения мировоззрения читателя.

**Ключевые слова:** анализ истории, аннотированное чтение истории, морское яблоко, которое построил папа, разборчивость.

**Annotation:** this article comments on the elementary grades' story reading methodology, story analysis, and the importance of doing so in enhancing the reader's worldview.

**Keywords:** analysis of the story, explanatory reading of the story, sea Apple, intelligibility, which dad built.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagan ortiqroq hayotiydir.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xattiharakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi.

Shuning uchun, bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan foydalaniladi. Ushbu jaryonda asosiy ish turi hikoyani tahlil qilishdir.

Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Hikoyani tahlil qilish. Ushbu dars jarayonida hikoya o'qituvchi tomonidan tushuntirib o'qib beriladi. So'ngra darsning asosiy qismi hisoblangan hikoyani tahlil qilish bosqichiga



o‘tiladi. Bu eng muhim bosqich bo‘lib, asosan o‘quvchining fikrlashi hamda nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘qib tushuntirib bergan hikoya asosida tahliliy suhbat o‘tkaziladi. Ya’ni, hikoyaqahramonlari, undagi voqealar rivoji, qaysi epizod yoqqanligi va h.k. Bu orqali o‘quvchida fikrlash hamda keng dunyoqarashni shakllantirish imkoni paydo bo‘ladi. Dars jarayoni taxminan shunday tashkil etilsa maqsadga muvofiq:

1. Matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o‘quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.

Lekin hikoyani tahlil qilishda syujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o‘ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o‘ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog‘liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf “O‘qish kitobi”dagi “Dadam qurgan dengiz” (Hakim Nazir), “Olma” (Malik Murodov) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. Shuningdek, tahlilda o‘qilayotgan hikoya matnining tushunarliligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlilik deganda, biz hikoyani qanchalik bolaning dunyoqarashi, tafakkuriga mos tanlanishini anglashimiz mumkin.

Hikoyani tahlil qilishda savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi.

Kitobni ardoqlagan oilada hotirjamlik, osoyishtalik, halollik va ahillik hukm suradi. Bunday muhitda baraka ham bo‘ladi. Oilada birinchi otaning o‘rni, uning



hurmatini joyiga qo'yish, onani e'zozlash, katta aka-opalar, ukalarga e'tiborli bo'lish degan tansiq odatlar bevosita kitob orqali mustahkamlanadi.

Kitobni bola xijjalab, sabr bilan o'qish jarayonida, har bir so'zni yurakdan his qilib hazm qiladi. Bu donolar ta'kidlaganidek, toshga o'yilgan naqsh singaridir. Kitob ilm olishga tashnalikni oshiradi.

Yosh avlodning ilmiy-dunyoviy bilimlar asoslarini puxta egallashi, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamining hosil bo'lishi va ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etilishiga erishish lozim. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ularni boyitish,

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bog'liqdir. Har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishda esa zahmatkash o'qituvchi va murabbiylarning mashaqqatli mehnatlari yotadi.

Maktablarda o'qitiladigan bir qator o'quv fanlarida badiiy asarlarga ko'p murojaat qilinadi. Masalan, o'qish darslarida yozuvchilar, shoirlarning hayoti va ijodi, ularning asarlari, ona tili va rus tili fanlari darslarida badiiy asarlardan parchalar, gaplar keltiriladi va ularni tahlil etish orqali fan asoslari o'rganiladi hamda shu asosda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini oshirishda ham badiiy asarlardan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi uchun yangi dastur va tadbirlarni ishlab chiqilar ekan, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishiga hissa qo'shish har bir yurt fuqarosining burchidir. Ana shu burchlarimizdan biri yoshlarning bilim olishlariga shart-sharoitlar yaratib berishimiz lozim. Buning ucun nima qilmoq kerak, degan savol paydo bo'lishi tabiiy.

Eng to'g'ri va oqilona fikr bu o'quvchilarni o'zining qiziqishi va moyilligiga, qobiliyatiga mos bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishimiz va mustaqil qaror qabul qila olishi uchun har xil chora-tadbirlarni o'rgatishimiz lozim. Ana shu chora tadbirlardan biri maktablarda o'quvchilarning badiiy asarlarga qiziqishlarini ta'minlash juda muhimdir. Chunki, o'quvchilar badiiy asarlarni mutolaa qilganlarida asar qahramonlarini o'zlarining tasavvurlarida ko'radilar.

Bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qiladilar. Natijada fikrlash doiralari kengayib hayotga real qaray boshlaydilar. Hamma bolalar ham badiiy asarlarni o'qiyvermaydilar-ku, degan e'tiroz paydo bo'lishi mumkin. Buning uchun esa maktablarda darsdan tashqari tadbirlarni, o'quvchilarning qiziqishiga mos bo'lgan kechalarni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.



### **Xulosa.**

Demak, mamalakatimizing ravnaqi uchun vijdonan harakat qilmog‘imiz zarur.

O‘quvchi yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo‘lib voyaga yetishlari uchun, avvalo, biz o‘qituvchilar bilimli, ma’naviyatli, raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib shakllanishimiz darkor. Ana shundagina biz ko‘zlagan maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Abdullayeva Q., Karimova M. **Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi.** – Toshkent: O‘qituvchi.
2. G‘ulomova S. **Boshlang‘ich ta‘limda nutqni rivojlantirish metodikasi.** – Toshkent.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** – Toshkent.
4. Safarova R. **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish yo‘llari.** – Toshkent.
5. Qosimova K. **Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash metodikasi.** – Toshkent.